

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA SAVODXONLIK  
MUAMMOSI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA PEDAGOGIK  
YECHIMLAR.**

Fan va texnologiyalar universiteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi  
**Nodirabegim Xojimatova Mirzarahmon qizi**  
[muhammadaliyevanodirabegim28@gmail.com](mailto:muhammadaliyevanodirabegim28@gmail.com)

+998940118017

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlik muammosining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan. Maqolada savodxonlikning pasayishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar, jumladan, oilaviy muhitning ta'siri, texnologiyalarning noto'g'ri ishlatilishi, ta'lim sifati va metodik yondashuvlarning kamchiliklari hamda o'quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, savodxonlikni oshirishda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan o'yinli va interaktiv metodlar, differensial ta'lim, raqamli vositalardan samarali foydalanish va ota-onalar bilan uzviy hamkorlik imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish, darslik va o'quv materiallarini yoshga moslashtirish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar tashkil etish hamda ta'lim jarayonida nazorat va monitoring tizimini yaxshilash bo'yicha pedagogik tavsiyalar taqdim etilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda savodxonlik muammosini samarali hal qilish va o'quv jarayonini sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan amaliy yo'nalishlarni belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, savodxonlik, o'quvchi faoliyati, zamonaviy yondashuvlar, pedagogik echimlar, metodik uslublar, o'yinli metodika, differensial ta'lim, raqamli texnologiyalar, ota-ona hamkorligi.

**Annotation:** This article is dedicated to the issue of literacy among primary school students and its relevance in the context of modern education. It analyzes the

main causes of declining literacy, including the influence of the family environment, the improper use of technology, shortcomings in the quality of education and teaching methods, as well as psychological and physiological characteristics of students. The paper examines innovative pedagogical approaches used to improve literacy, such as game-based and interactive methods, differentiated instruction, effective use of digital tools, and close cooperation with parents. It also provides practical recommendations for improving teachers' methodological skills, adapting textbooks and educational materials to the age-specific needs of students, organizing activities aimed at developing written and oral language, and enhancing monitoring and evaluation systems in the educational process. The findings offer practical directions for addressing literacy issues and improving the quality of education in primary schools.

**Key words:** primary education, literacy, student activity, modern approaches, pedagogical solutions, teaching methods, game-based learning, differentiated instruction, digital technology, parental involvement.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема грамотности среди учащихся начальных классов и её актуальность в условиях современного образования. Анализируются основные причины снижения уровня грамотности: влияние семейной среды, неправильное использование технологий, недостатки в качестве образования и методических подходах, а также психологические и физиологические особенности учащихся. В статье рассматриваются современные педагогические подходы к повышению грамотности, такие как игровые и интерактивные методы, дифференцированное обучение, эффективное использование цифровых инструментов и тесное сотрудничество с родителями. Также предлагаются практические рекомендации по повышению методических навыков учителей, адаптации учебников и материалов к возрастным особенностям учащихся, организации занятий по развитию письменной и устной речи, а также по совершенствованию системы контроля и оценки в образовательном процессе. Результаты исследования определяют практические

направления решения проблемы грамотности и повышения качества начального образования.

**Ключевые слова:** начальное образование, грамотность, учебная активность, современные подходы, педагогические решения, методика преподавания, игровые методы, дифференцированное обучение, цифровые технологии, сотрудничество с родителями.

Savodxonlik — bu shaxsning yozma matnlarni o‘qish, tushunish, tahlil qilish va mazmunli fikr bildirish qobiliyatidir. U nafaqat harflarni tanish va o‘qib bera olish, balki o‘qilgan matnni tushunish, undan xulosa chiqarish va o‘z fikrini bayon eta olish malakalarini ham o‘z ichiga oladi. UNESCO tomonidan savodxonlik “insonning kundalik hayotida zarur bo‘lgan o‘qish, yozish va hisoblash ko‘nikmalariga egaligi” sifatida ta’riflanadi. Bugungi kunda esa bu tushuncha yanada kengayib, axborotni tanqidiy baholash, ma’lumotlar bilan ishlash va raqamli savodxonlik kabi zamonaviy ko‘nikmalarni ham qamrab olmoqda.

Boshlang‘ich ta’limda savodxonlik o‘quv jarayonining asosi hisoblanadi. Aynan boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarda o‘qish va yozishga oid asosiy ko‘nikmalar shakllanadi. Bu bosqichda savodxonlik nafaqat til va adabiyot fanlari, balki barcha fanlarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan universal vosita sifatida xizmat qiladi. O‘quvchining savodxonlik darajasi uning keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyati, mustaqil o‘rganish qobiliyati, tanqidiy fikrlashi va ijtimoiy faol ishtiroki uchun poydevor bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda savodxonlikni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘quvchilarda o‘qishga nisbatan qiziqish uyg‘otish, nutq madaniyatini rivojlantirish va ifodali yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish savodxonlikni mustahkamlashda muhim omillardandir. Shuningdek, zamonaviy metodikalar va texnologiyalarni joriy etish orqali bu jarayonni yanada samarali tashkil etish mumkin.

Savodxonlik – bu har qanday ta’lim jarayonining poydevori hisoblanadi. Hozirgi kunda maktab amaliyotida o‘quvchilarda savodxonlik darajasining pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat o‘quvchilarning boshqa fanlarni o‘zlashtirishida

qiyinchilik tug‘dirishi, nutqiy faolligining sustlashuvi, mustaqil fikrlash va izchil ifoda qilish qobiliyatining yetarli rivojlanmasligiga olib kelmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, bolalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishining kamayishi, oilaviy muhitdagi befarqlik, o‘qituvchilarning metodik yondashuvlaridagi kamchiliklar ham bu muammoning chuqurlashishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, savodxonlik faqat o‘qish va yozish emas, balki tanqidiy fikrlash, og‘zaki va yozma nutq madaniyatining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish, bu boradagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish orqali nafaqat savodxonlik muammosiga yechim topish, balki o‘quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishiga ham zamin yaratish mumkin.

Boshlang‘ich ta‘lim — bu bolaning hayotidagi eng muhim va mas‘uliyatli bosqich bo‘lib, aynan shu davrda bilim olishga bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar, dunyoqarash, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikning dastlabki tamoyillari shakllanadi. Mazkur bosqichda savodxonlik — ya‘ni o‘qish, yozish va fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda aniq ifoda etish qobiliyatlari — barcha bilim sohalarini egallashning asosiy kaliti hisoblanadi. Savodxonlik nafaqat o‘qish va yozishni o‘rganish bilan cheklanmaydi. U o‘quvchining tafakkuri, nutqi, muloqotga kirishish layoqati, shuningdek, mustaqil fikrlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Savodxon o‘quvchi matnni tushunadi, unga munosabat bildiradi va o‘z fikrini izchil tarzda ifodalay oladi. Bunday malakalar esa kelgusida fanlarni puxta o‘zlashtirish, jamiyatda faol ishtirok etish va ijodiy fikrlash uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, savodxonlik bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. O‘qish va yozishni o‘zlashtira olmagan yoki sust o‘zlashtirgan o‘quvchi darslarga bo‘lgan qiziqishini yo‘qota boshlaydi, sinfdoshlaridan orqada qoladi, bu esa psixologik noqulayliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli savodxonlikning erta shakllanishi — bolaning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida

o‘z o‘rnini topishida muhim omildir. Zamonaviy ta‘lim tizimi sharoitida esa savodxonlik keng ma‘noda talqin qilinmoqda. U faqat an‘anaviy o‘qish va yozish emas, balki axborotni izlash, uni tahlil qilish, tushunish, tanqidiy fikrlash va raqamli vositalardan ongli foydalanish malakalarini ham o‘z ichiga oladi. Demak, savodxonlik – bu XXI asrda har bir inson uchun zarur bo‘lgan funksional bilimlar majmuidir. Shu jihatdan olib qaraganda, boshlang‘ich ta‘limda savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan har bir pedagogik faoliyat nafaqat o‘quvchining hozirgi o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki uning kelajakdagi ijtimoiy hayotga tayyorgarlik darajasini ham belgilaydi. Shu bois, bu masalaga chuqur yondashish, zamonaviy metod va texnologiyalarni joriy etish, har bir bola uchun individual yondashuvni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida savodxonlik darajasining pasayishi ta‘lim tizimida jiddiy muammo sifatida qaralmoqda. Bu holatga ta‘sir etuvchi omillar ko‘p va murakkab bo‘lib, ularni to‘g‘ri aniqlash va tahlil qilish savodxonlikni oshirishga qaratilgan aniq va samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘quvchining savodxonligi, avvalo, uning oiladagi tarbiyasi, kitobxonlik muhiti va ota-onalarning ta‘limga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liq. Aksariyat hollarda ota-onalarning o‘z farzandlari bilan dars tayyorlashga befarqligi, uyda kitob o‘qilmasligi va bolalarning ekranga (telefon, planshet, televizor) haddan tashqari bog‘lanib qolishi savodxonlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Zamonaviy texnologiyalar — ta‘lim jarayonini yengillashtiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ular noto‘g‘ri yoki me‘yoridan ortiqcha qo‘llanilganda, aks ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, ko‘plab o‘quvchilar darsdan bo‘sh vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda yoki kompyuter o‘yinlariga sarflaydi, bu esa ularning diqqat markazini pasaytiradi, matn bilan ishlashga bo‘lgan qobiliyatini zaiflashtiradi. Ba‘zida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining dars o‘tish uslublari zamon talablariga javob bermaydi. An‘anaviy va zerikarli usullar bilan o‘tilgan darslar o‘quvchilarda o‘qish va yozishga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olmasdan olib borilayotgan umumiy yondashuv ham

savodxonlik darajasining pasayishiga olib keladi. Ba'zi hollarda esa boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tushunish darajasiga mos kelmaydi. Matnlar haddan ortiq murakkab, mazmunan zerikarli yoki real hayotdan uzoqlashgan bo'lishi mumkin. Bu holat o'quvchilarning matnga qiziqishining pasayishiga olib keladi. Ammo, sanoqli o'quvchilarda tabiiy ravishda eshitish, ko'rish yoki nutqiy muammolar, shuningdek, logopedik muammolar mavjud bo'ladi. Ular o'z vaqtida aniqlanmasa, bu o'quvchining o'qib tushunish va yozma ifodalanishida qiyinchiliklarga olib keladi. Shuningdek, diqqatning tarqoq bo'lishi, haddan tashqari uyatchanlik yoki o'ziga ishonchsizlik ham savodxonlikka salbiy ta'sir qiladi. Shu kabi muammolar qarshimizda turar ekan, bizning harakatdan to'xtab qolishimiz aslo mumkin emas. Har bir muammolarning o'z yechimlari mavjud. Endi yechimlarga to'xtalib o'tadigam bo'lsak: Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda savodxonlik darajasini oshirish uchun an'anaviy usullarga qo'shimcha ravishda zamonaviy, innovatsion yondashuvlar keng joriy etilmoqda.

O'yinli va interaktiv metodlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga xos bo'lgan psixologik va fiziologik xususiyatlar sababli o'yin orqali o'rganishga moyil bo'lishadi. Shu sababli savod o'rgatishda turli o'yin elementlari, rol o'ynash, jumboqlar, harakatli mashqlar, so'zlar bilan konstruktiv o'yinlar qo'llanilishi o'quvchilarda o'qish va yozishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Interaktiv metodlar, masalan, juftlikda ishlash, guruhli topshiriqlar, "fikrlar charxi", "savol-javob estafetasi" kabi usullar esa o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Differensial yondashuv: har bir o'quvchining qobiliyati, bilim darajasi va o'rganish tezligi turlicha bo'lganligi sababli, ularga bir xil talab qo'yish to'g'ri emas. Differensial yondashuv — o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos topshiriqlar berish, ularni kichik guruhlarga ajratish, yengilroq yoki murakkabroq mashqlar orqali mustaqil ishlashga yo'naltirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv orqali har bir bola o'z sur'ati bilan savodli bo'lish imkoniga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish: raqamli texnologiyalar (planshet, kompyuter, interaktiv doska, elektron darsliklar va mobil ilovalar) savod

o'rgatish jarayonini jonlantirish, vizual va eshitish vositalari orqali tushunchalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. "Bilimdon", "MyAlphabet", "ZorSavod", "EduMarket" kabi interaktiv o'yinlar va o'quv platformalari orqali o'quvchilar harflar, so'zlar, matnlar bilan ishlashni quvnoq va esda qolarli tarzda bajaradilar. Muhimi, bu texnologiyalar maqsadli va me'yorida qo'llanilishi kerak, aks holda ular chalg'ituvchi omilga aylanishi mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlar: boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda oila bilan hamkorlik qilish muhim omildir. Ota-onalarga pedagogik maslahatlar berish, savod o'rgatish jarayonida ularning ishtirokini ta'minlash (masalan: birgalikda kitob o'qish, yozuv daftarlari ustida ishlash), ota-onalar bilan suhbatlar va seminarlar o'tkazish orqali o'quvchi uchun darsdan tashqarida ham o'quv muhiti yaratish mumkin. Bu orqali bolaning motivatsiyasi, javobgarlik hissi va savodga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlikni shakllantirish va uni mustahkamlash muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda nafaqat dastur asosida harflarni o'rgatish, balki o'quvchilarning mustaqil o'qish, tushunish, yozish, matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ham asosiy e'tiborda bo'lishi kerak. Ho'sh savodxonlikni rivojlantirishga aynan qanday yechim taqdim eta olamiz degan fikr har bir ta'lim sohasidagi insonlarni o'ylantirgani mubolag'a emas. Keling ushbu muammoga to'g'ri keladigan yechimlar bilan tanishib chiqamiz:

Individuallashtirilgan yondashuvni kuchaytirish: har bir o'quvchi o'zining bilish sur'ati, idrok darajasi, tili va xotirasi bilan boshqalardan farqlanadi. Shunday ekan, savodxonlikni oshirishda har bir bolaga alohida e'tibor qaratish, individual yondashuvni qo'llash zarur. Bunda differensial topshiriqlar, maxsus mashqlar, o'quvchini qiynamaydigan, lekin rivojlantiradigan mustaqil ishlar samarali bo'ladi.

Savod o'rgatish bosqichlarini izchil va tizimli tashkil etish: savod o'rgatish jarayoni bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilishi kerak: avval tovush-harf, keyin bo'g'in, so'z, so'ngra gap va matnga o'tiladi. Har bir bosqichda

mustahkamlovchi mashqlar, amaliy diktantlar, ko‘rish orqali yozish va og‘zaki mashqlar orqali bilimlar chuqurlashtiriladi.

Ko‘rgazmali va multimedia vositalaridan keng foydalanish: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatida ko‘rgazmalilik muhim rol o‘ynaydi. Harflarni o‘rgatishda ko‘rgazmali plakatlar, harf kartochkalari, grafik sxemalar va interaktiv doskalar juda samarali. Audio va video materiallar orqali o‘qish tezligi, so‘z boyligi va tinglab tushunish malakalari shakllanadi.

Kitobxonlik muhitini shakllantirish: o‘quvchida o‘qishga bo‘lgan mehrni uyg‘otish uchun sinf kutubxonalari tashkil etish, qisqa va sodda bolalar kitoblarini o‘qitish, o‘qilgan kitoblar asosida savol-javoblar, rasm chizish, hikoya yozish kabi topshiriqlar berish foydali bo‘ladi. Bu usullar savodxonlikni amalda mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijodiy va rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanish: savod o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshiruvchi usullar, masalan: hikoya tuzish, matnni davom ettirish, muqobil yakun o‘ylab topish, shuningdek, “Eng yaxshi hikoya”, “Eng toza daftar”, “Savodli o‘quvchi” kabi unvonlar va kichik rag‘batlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni kuchaytirish: uyda ham savod mashqlarini davom ettirish uchun ota-onalar bilan hamkorlik muhim. Ularga pedagogik maslahatlar berish, oddiy va qiziqarli topshiriqlar tavsiya etish, darsdan keyin ota-ona ishtirokida mashg‘ulotlar tashkil etish orqali bolalar bilimni yanada chuqurlashtirish mumkin.

Doimiy monitoring va diagnostik tahlil: o‘quvchilarning savodxonlik holatini muntazam baholash, testlar, mini-nazorat ishlari va diagnostik mashqlar orqali ularning yutuq va kamchiliklarini aniqlash muhimdir. Bu orqali individual yondashuvlar asosida pedagogik yordam ko‘rsatish osonlashadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligi ularning butun ta‘lim jarayonidagi muvaffaqiyatining poydevorini tashkil qiladi. Savodxonlik darajasining pasayishi ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va



o'quvchilarning kelajakda bilim olishga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, savodxonlik pasayishining asosiy sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar joriy etish muhimdir. Shuningdek, pedagogik amaliyotda savodxonlikni rivojlantirish masalasi o'qituvchilar malakasi va ularning pedagogik innovatsiyalarga tayyorligi bilan bevosita bog'liq. O'qituvchilarning yangi metodlarni o'zlashtirishi va amaliyotga joriy qilishi, o'quvchilarni darslarga qiziqitira olishlari savodxonlikni oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib qoladi. Ushbu muammoni hal qilishda ota-ona bilan yaqin hamkorlik o'quv jarayonining uy sharoitida ham davom etishini ta'minlaydi, bu esa bolaning o'z bilimlariga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, maktablar savodxonlikni oshirish bo'yicha zamonaviy dasturlarni ishlab chiqishi, diagnostika va monitoring tizimlarini takomillashtirishi lozim. Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirish nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning ta'lim darajasini ko'tarish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, savodxonlikni pasayishining sabablarini aniqlash va samarali pedagogik yechimlarni joriy etish doimiy e'tiborda bo'lishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva, G. M. (2018). Boshlang'ich ta'limda savodxonlikni shakllantirish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Karimov, S. T. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Mirzaev, A. B. (2019). O'yin metodlari yordamida savodxonlikni oshirish. Pedagogika ilmiy jurnali, 4(2), 45-53.
4. Nazarov, E. R. (2021). Boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Raxmonova, D. N. (2017). Raqamli texnologiyalar ta'limdagi roli. Toshkent: O'zbekiston axborot texnologiyalari.

6. Sobirova, M. K. (2022). Ota-onalar bilan hamkorlik asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirish. *Pedagogika va psixologiya*, 5(1), 112-118.
7. Tursunov, I. J. (2019). Boshlang'ich sinfda o'qitish metodikalari. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
8. UNESCO (2015). Improving literacy outcomes in early grades: A guide for teachers and educators. Paris: UNESCO Publishing.
9. Vahobova, N. S. (2020). Savodxonlik muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari. *Pedagogika va innovatsiyalar*, 3(3), 27-34.
10. Zokirov, M. A. (2018). Boshlang'ich ta'limda interaktiv metodlardan foydalanish. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti..